

**FUQAROLIK JAMIYATI SHAKLLANISH JARAYONINING IJTIMOY ONG TRANSFORMATSIYASIGA TA'SIRI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19187923>

**G.Sharabutdinova**

*Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini mudiri*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayoni va uning ijtimoiy ong o'zgarishlariga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi fuqarolarning ijtimoiy faolligi, huquqiy ongi, tanqidiy fikrlashi hamda jamoatchilik mas'uliyatini shakllantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Maqolada ijtimoiy ong transformatsiyasining asosiy yo'nalishlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *globalashuv, jamiyat, taraqqiyot, ijtimoiy ong, qadriyat, erkinlik.*

**Annotatsiya:** *V dannoy statye proanalizirovan protsess formirovaniya grajdanskogo obuyestva i yego vliyaniye na transformatsiyu sotsialnogo soznaniya. Razvitiye institutov grajdanskogo obuyestva rassmatrivayetsya kak vajnyy faktor formirovaniya sotsialnoy aktivnosti grajdan, ix pravovogo soznaniya, kriticheskogo myshleniya i obuyestvennoy otvetstvennosti. V statye nauchno-teoreticheski osveuyeny osnovnyye napravleniya transformatsii sotsialnogo soznaniya.*

**Klyuchevyye slova:** *globalizatsiya, obuyestvo, razvitiye, sotsialnoye soznaniye, sennosti, svoboda.*

**Abstract:** *This article analyzes the process of civil society formation and its impact on the transformation of social consciousness. The development of civil society institutions is considered an important factor in shaping citizens' social activity, legal awareness, critical thinking, and public responsibility. The main directions of social consciousness transformation are scientifically and theoretically examined in the article.*

**Keywords:** *globalization, society, development, social consciousness, values, freedom.*

Hozirgi globallashuv sharoitida fuqarolik jamiyatining shakllanishi har bir davlat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati faqat ijtimoiy-siyosiy institutlar tizimi emas, balki jamiyat a'zolarining ongi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan, fuqarolik jamiyatining ijtimoiy ong o'zgarishlariga ta'sirini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

"Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot ko'rsatadiki, jamiyat yangi rivojlanish bosqichiga, qadriyatlarga o'tayotganida kishilarda obyektiv borliqdan qoniqmaslik paydo bo'ladi, ular ushbu bo'shliqni g'ayrihayotiy g'oyalar, irratsional qarashlar bilan to'ldirishga intiladilar. Inson ongi obyektiv borliq qoniqtirmagan, javob berolmagan muammolarga javobni ichki "Men"idan, subyektiv borliqdan qidiradi. Demokratik qadriyatlar insonga xos ushbu fazilatlarini qo'llab-quvvatlaydi, ularni huquq, erk, hurlik ifodasi sifatida himoya qiladi.

Inson yon-atrofdagilar bilan munosabatlarga kirishganida mutlaq yakka emasligini, boshqalar bilan munosabatlarga kirishish uning ham yashash kafolati, sharti ekanini biladi, ammo u o'zi uchun zarur, ahamiyatli bo'lgan narsalarga diqqatini, o'y-xayolini qaratadi, ahamiyatsiz topgan narsalarni

unutishga, ilg'amaslikka intiladi. To'plangan tajribalarni o'zlashtirish, o'zaro munosabatlarga kirishish sirlarini egallash ijtimoiy ong shakllanishining fundamental qonuni hisoblanadiki, buni mutlaq qarama-qarshi yondashishlarga ega tadqiqotchilar ham yakdillik bilan e'tirof etadilar" [1:333-334]

Ijtimoiy ong jamiyat a'zolarining ijtimoiy voqelikka bo'lgan munosabatlari, qarashlari, qadriyatlar va me'yorlarini ifoda etadi. Fuqarolik jamiyati esa ushbu ongning shakllanishi va rivojlanishi uchun institutsional va ma'naviy zamin yaratadi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolar yig'inlari kabi tuzilmalar orqali jamiyatda ijtimoiy ongning faol shakli qaror topadi.

Shuning uchun "Inson dunyoni kimsasiz orol yashaydigan Robinzon sifatida emas, balki oldingi kishilar to'plangan tajribalar asosida anglaydi; bu esa o'sha tajribalar ahamiyatini va me'yorini anglash orqali kechadi. Demak, ahamiyat insonlar to'plagan tajribalarning ongdagi umumlashgan in'ikosi shaklidir." [1:298.]

Ma'lumki, Fuqarolik jamiyati shakllangan sharoitda fuqarolar o'z muammolariga befarq bo'lmay, jamoat ishlarida faol ishtirok eta boshlaydi. Bu holat ijtimoiy ongda passivlikdan faol fuqarolik pozitsiyasiga o'tishni ta'minlaydi. Fuqarolik jamiyati institutlari fuqarolarning huquq va erkinliklarini anglash darajasini oshiradi. Qonun ustuvorligiga bo'lgan ishonch kuchayib, huquqiy ong ijtimoiy ongning muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Ochiq axborot muhiti va jamoatchilik nazorati orqali fuqarolar voqea-hodisalarni mustaqil tahlil qilishga o'rganadi. Bu esa ijtimoiy ongda ongli, tahliliy va tanqidiy munosabatni shakllantiradi.

Fuqarolik jamiyatida jamoat manfaatlari shaxsiy manfaatlar bilan uyg'unlashadi. Ijtimoiy ongda o'zaro ishonch, hamkorlik va jamoaviy mas'uliyat tuyg'usi kuchayadi.

Fuqarolik jamiyati rivojlangan sari jamiyatda ijtimoiy adolat, tenglik va qonuniylik tamoyillari mustahkamlanadi. Bu esa ijtimoiy ongda barqarorlik va ijtimoiy kelishuvni ta'minlaydi, nizolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ong bilan bog'liq jarayonlarni maxsus o'rganish ko'rsatadiki, kishi miyasi obyektiv borliqni real in'ikos etish qobiliyatiga ega. Bu boradagi informatsiya nazariyasi "nusxalar", "simvollar", "iyerogliflar" va shunga o'xshash ongning in'ikos imkonini noto'g'ri talqin qiluvchi qarashlarga o'rin qoldirmaydi. Ya'ni ilmiy eksperimentlar va to'plangan bilimlar kishi miyasida informatsiyaning boshi va oxiri o'rtasida real borliqni aniq, adekvat ifoda etadigan, P.K.Anoxin iborasi bilan aytganda, "informatsion ekvivalentlik" [4.338.] mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur informatsion ekvivalentlik ong sintezidan o'tib borliqni adekvat in'ikos etadi. To'g'ri, bu in'ikos mutlaq aynan, mutlaq adekvat bo'lmaydi, ammo kishi miyasining imkoniyati real borliqni anglashga qaratilgani, eksteriorativ xususiyati bilan hayratli fenomendir. Shuning uchun fuqarolik jamiyati bilan ijtimoiy ong o'rtasidagi dialektik bog'liqlik shaxsning perseptiv (sensitiv) – kognitiv xususiyatlaridagi o'ziga xoslikdan keng. Bu o'rinda dialektik bog'liqlikni tor perseptiv – kognitiv xususiyatlarga bog'lab qo'yish, A.G.Maslou qilganidek, to'g'ri emas. A.G. Maslou, inson bilan tashqi olam, jamiyat o'rtasida shunday dialektik aloqalar borki, uni o'rtasidagi yaqinlik yoki ziddiyat shaxsning o'z ichidagi xususiyatlarini anglashga, bilishga bog'liq, deb hisoblaydi. "Kishining dunyo bilan bog'liq qiyinchiliklari uning o'z ichki olamiga taalluqli qiyinchiliklar in'ikosidir." Shu nuqtayi nazardan u, kishining dunyo bilan yaxshi munosabatlari uning o'z ichki olami bilan murosada, ahil yashagani ifodasi, deb ko'rsatadi. Ha, "odam anglash imkoniga ega bo'lishi uchun ko'rishni o'rganishi lozim". Lekin bu barcha voqelik, ayniqsa, ijtimoiy hayotda ro'y beradigan hodisalar, kishining real borliqqa munosabatlari mutlaq uning o'z ichki olamiga munosabatidir, degan idealistik-kognitiv xulosa chiqarishga asos bo'lolmaydi. Chunki tashqi hayot, dunyo qanchalik ochiq, demokratik bo'lgan sari insonning ichki olami, perseptiv-kognitiv

dunyosi ham shunchalik ochiq, demokratik bo'lishi darkor, aks holda o'tkazilayotgan islohotlar va gumanistik o'zgarishlarning ahamiyati yo'q. Tashqi dunyodagi, jamiyatdagi demokratizm insonning ichki dunyosidagi, ruhiyati va qalbidagi demokratizm orqaligina qimmatlidir. Fuqarolik jamiyati haqida gap ketganida ijtimoiy ongning mazkur ichki, kognitiv demokratizmga ta'siri, undan keyin ijtimoiy munosabatlarga bog'liqligi nazarda tutilishi darkor. Agar fuqarolik jamiyati inson manfaatlarini strategik maqsadi qilib qo'ysa, undagi demokratik qadriyatlar insondagi kognitiv demokratizmning aks etishi bilan o'lchanishi tabiiy holdir[1.334-335].

Fuqarolik jamiyati nazariyasiga oid asarlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu tushuncha: Gegelda — huquqiy-iqtisodiy tizim, Tokvilda — demokratik faollik muhiti, Gramshida — mafkuraviy maydon, Xabermasda — muloqot va tanqidiy ong makoni sifatida izohlanadi. Barcha yondashuvlarni umumlashtirganda, fuqarolik jamiyati ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va transformatsiya qiluvchi asosiy ijtimoiy-falsafiy omil ekani ayon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda fuqarolik jamiyati shakllanish jarayoni ijtimoiy ongning sifat jihatdan o'zgarishiga olib keladi. U fuqarolarni faol, mas'uliyatli, huquqiy madaniyatga ega va tanqidiy fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantiradi. Shu bois, fuqarolik jamiyati rivoji ijtimoiy ong taraqqiyotining asosiy omili sifatida qaralishi lozim. Binobarin, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot ijtimoiy ongni faollashtiradi, unga obyektivlashish imkoniyatlarini beradi, o'z navbatida ijtimoiy ong ham jamiyat rivojlanishiga ta'sir etadi. Ushbu ta'sir insonlar xatti-harakatlari, munosabatlari va ijodiy izlanishlari kabilarda namoyon bo'ladi. To'g'ri, ongni ko'rish, ushlab mumkin emas, biroq uning ta'siri isbot talab qilmas haqiqat. Inson nimani yaratsa, bajarsa, ularni ongida shakllangan tasavvur, fikr, g'oya, modelga muvofiq qiladi, demak, ong bilvosita ta'siri orqali inson faoliyatini, hayoti va emotsional harakatlarini boshqaradi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Norqulov D., Norqulov S. Fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonining ijtimoiy ong o'zgarishlariga ta'siri. // O'rta Osiyo xalqlari tarixining dolzarb masalalari. xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari to'plami// Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: Rahmonali Hasanov – T.: Turon FA., 2021.

2. Leontyev A.N. Проблемы развitiya psixiki. – Moskva: ASPEKT-PRESS, 2001.

3. Qarang: Mavlyanov J. Grajdanskoye obshchestvo: ot konsepta k konsepsiyam i paradigmam (sotsialno-filosofskiy analiz). –Toshkent: Istiqol nuri, 2014.

4. Anoxin P.K. Filosofskiy aspektы teorii funktsionalnoy sistema. – Moskva: AST, Astrel, 2008.